Қўллар ҳаракатидаги аниқлик ва чаққонлик, қўллар-нинг кичик бурчак ҳрсил қиласи ҳаракатланиши ёш сайин ортиб боради. Чидамлилик маълум гурух мускуллар иш қрбилиятининг узокрок сақланиб туриш, яъни чарчашиб қаршилик кўрсатиш хусусиятидан иборат. Чидамлилик ички органлар, айниқса юрак-қон томир ва нафас олиш системалари хусусиятига боғлиқ. Организм-нинг чидамлилиги бажариладиган ишпинг табиатига ва жадаллигига қараб ўзгариб туради. Иш қанчалик тез бажарилса, чидамлилик шунча кам бўлади. Иш жадал-лиги икки марта ортганда чидамлилик 100 мартагача камайиши мумкин.

Ёш улғайган сайин чидамлилик ортиб боради, лекин у бир текисда бўлмайди. 8-10 яшар киз ва ўғил бола ларнинг чидамлилиги бир хил бўлади. 12-15 ёшда айниқса ўғил болаларда ортади. 14 яшар болаларнинг чидамлилиги катта одамнига нисбатан 70% ни, 16 ёшда 80% ни ташкил этади.

Шундай қилиб, болаларда 8 ёшдан 11-12 ёшгача юриш, югуриш, сакраш, улоқтириш ва ҳаракат сифатлари (тезкорлик, чаққонлик, кучлилик, чидамлилик) ривожланишда давом этади. 12 ёшдан 16 ёшгача тик туриш ва юришни таъмпловчи скелет мускуллари анча тез ривожланади. 14—16 ёшда мускуллар билан бирга бўғим, боғлам аппарати ривожланиб боради.

Мускулларнинг чарчашиб. Чарчашиб деб, алоҳида орган ёки бутун организм ёхуд тўқиманинг фаолиятидан сўнг иш қобилиятининг вақтипча пасайишига айтилади. Дам олишдан сўнг чарчоқлик босилади. Бир гурух мускулларнинг чарчашиб эргографда текширилади.

Мускуллар иш вақтида ёки статик вазиятда узоқ қисқариб турғанда ёки бирорта жисмоний иш бажарғанда чарчайди. Мускул чарчаганда унинг қисқаришидаги латент давр узаяди, кучи сусаяди, таъсирга жавоб реакцияси төсслиги пасаяди, организмнинг чидамлилиги камаяди. Бола қанча ёш бўлса, шунча тез чарчайди, айниқса бир турли мускуллар тез чарчаб қолади. Болалар ҳаракатсиз турғанда тезроқ чарчайди. Мехнат қобилиятынинг узоқ сақланишида ва чарчоқликнинг бошланишида марказий нерв системаси ҳал қилувчи роль ўйнайди.

Адиномия, яъни камҳаракатлик ва мускулларнинг кам ҳаракатланиши ички органлариинг ривожланишига салбий таъсир этади. 6-7 яшар болалар аниқликни талаб қиласиган ва қаршиликни енгадиган ҳаракатлар қилмаганидан чарчамагапга ўхшайди. 7-8 яшар болаларнинг майда мускуллари етарлича уйғун қисқармайди, аниқ, майда, нозик ҳаракатларпи жуда қийинлик билан бажаради, бинобарин, ёзиш, раэм чизища, нина билан ишлашда дарров чарчаб қолади. Бундай болалар катта одамга нисбатан кўп ҳаракат қиласи, лекин кам энергия сарфлайди. 7-12 яшар болалар ҳам ҳаракатлари уйғун-лашмаганидан тез чарчайди. Шунинг учун бу ёшдаги болалар купи билан 40-45 минут жисмоний машқ қи-лиши керак. 11-12 яшар болалар энди жисмоний куч ва чидамлиликни талаб қилувчи ҳаракатларни бажара бошлайди. 14 яшар болаларнинг нерв системаси ва ҳаракат аппарати органлари хали етарли ривожланмаган бўлади, шу туфайли катта одамга нисбатан 2,5 марта, 16 яшар болалар 2 марта тез чарчайди.

Турли хил жисмоний машғулотларни олиб борища, мактаб олди участкаси ва ишлаб чиқариш практикасида юқоридагиларни хисобга олиш зарур. Шунинг учун болалар гимнастика билан шуғулланганда, меҳнат қилганда тез-тез дам бериш, иш суръати ва турии ва бола уз хр-латини ўзгартириб туриши керак.

16- mavzu	Nerv muskul preparatini tayyorlash
------------------	---

1.1. laboratoriya mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqti – 2 soat	Talabalar soni: 60 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual ma'ruza laboratoriya asbob uskunalaridan foydalangan holda
Labooratoriya mashg'ulotining rejasi	Nerv va muskullarning fiziologik xususiyatlarini o`rganish: Baqaning asab-muskul preparatini tayyorlash. Ajratilgan muskulning yakka, tishli va tekis tetanik qisqarishlarini o`rganish. Ajratib olingan skelet mushagining qisqarish (quyi, yuqori, eng yuqori) darajasini ta`sirlash kuchiga bog`liqligi.Izometrik va izotonik muskul qisqarishi.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> «Nerv va muskullarning fiziologik xususiyatlarini o`rganish »	
Pedagogik vazifalar:	<i>O'kv faoliyati natijalari:</i> - Nerv va muskullarning fiziologik xususiyatlarini o`rganish: Baqaning asab-muskul preparatini tayyorlash. Ajratilgan muskulning yakka, tishli va tekis tetanik qisqarishlarini o`rganish. Ajratib olingan skelet mushagining qisqarish (quyi, yuqori, eng yuqori) darajasini ta`sirlash kuchiga bog`liqligi.Izometrik va izotonik muskul qisqarishi.ma'lumot oladi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Munozarali savol-javob, laboratoriya ishi bajariladi.
O'qitish vositalari	Laboratoriya asbob uskunalarini.
O'qitish shakli	Jamoa bo'lib ishslash
O'qitish shart-sharoitlari	Kompyuter, proektor bilan jihozlangan o'quv xonasi.

Laboratoriya mashg'ulotining texnologik kartasi (1-mashg'ulot)

Bosqichlar, vaqtি	Faoliyat mazmuni O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. mavzu maqsadi, mavzuning hal qilinishi kerak bo'lgan muammolari va o'quv mashg' ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi	1.1. Tinglaydi, yozib oladi, fikr bildiradi
2- bosqich. Asosiy (50 min.)	2.1. Talabalarning dastlabki bilimini tekshirish maqsadida qon olish texnikasi bo'yicha savol javob o'tkaziladi. 2.2. O'qituvchi laboratoriya jihozlaridan foydalanib baqani kesib qon olinadi.	2.1. Talabalar og'zaki savollarga javob beradi. 2.2. Talabalar tinglaydi va baqa qonini probirkaga olib cho'kish tezligi aniqlanadi.
3- bosqich. YAkuniy (20 min.)	3.1. Mavzuga yakun yasaydi, xulosalaydi. 3.2. Munozara savolarini o'rtaga tashlaydi va mavzu mustahkamlanadi 3.3. Uyga vazifani yozib oladi	3.1. Tinglaydi, tushunmagan savollar bilan murajaat qiladi. 3.2. Munazarada ishtirok etadi 3.3. Uyga vazifani yozib oladi.

Maqsad: Meditsinada kon olish texnikasi xakida tushuncha xosil kilish. Odam qonidagi eritrotsitlar va leykotsitlar miqdorini aniqlash. Qonning ivish tezligini aniqlash. Qonning ivish tezligiga harakatning va kaltsiy tuzining ta'siri»

Jihozlar: Tajriba uchun kerakli asbob uskunalar va mikroskop.

Dars jarayoni tartibi.

1. *Talabalarning laboratoriya mashg' ulotiga tayyorgarligini tekshirish* – talabaning tayyorgarligini og'zaki savol-javob orqali aniqlanadi. Talaba mavzu bo'yicha mikroskopdan va boshqa asbob uskunalardan foydalanish texnikasini bilishi kerak:

2. *Mavzuni va dars jarayonini o'qituvchi tomonidan yoritib berish* – o'qituvchi talabalar javoblarini umumlashtirib beradi va darsda qilinishi kerak bo'lgan jarayonlarni bayon etadi.

3. *Talabalarning o'quv jihozlari bilan tanishishi* – har bir talabaga (yoki har bir stolga) asbob uskunalar tarqatiladi. Talabalar asbob uskunalarini tablitsa va darslik orqali o'rganadi hamda mikropreparatlarni taqqoslaydi.

4. *Talabalarni baholash* – talabalar darsda faol qatnashganligi, savollarga bergen javoblari 5 balli sistema asosida baholanadi

5. *Uyga vazifa* mavzusi bo'yicha nazariy bilimga ega bo'lish.


6. *Darsni yakunlash* – mikroskoplardan preparatlarni olib idishiga joylash, mikroskopni kichik ob'ektiviga olib shkaflarga joylash, tablitsalarni va al'bomlarni joyiga quyish.

NERV-MUSKUL PREPARATINI TAYYORLASH

Muskul va nervning fiziologik xossalarni o'rganish ko'pincha baqaning orqa oyoqlaridan tayyorlangan nerv va muskul preparatidan foydalaniladi. Boldir mushagi vya uni innervatsiya qiluvchi quymich nervi klassik nerv-muskul preparati hisoblanadi.

Ish anjomlari: preparovka asboblari yig'indisi, jomcha, doka salfetkalar, jarrohlik stoli, Ringer eritmasi va baqa.

Tajriba o'tkazish tartibi. Baqa harakatsizlantirilgach, tanasining pastki qismi salfetkaga o'raladi, so'ng katta qaychi yordamida umurtqasi bel qismining 1 sm yuqorisidan kesiladi (21-rasm, a).



21-rasm. Nerv-muskul preparatini tayyorlash bosqichlari. Izohi matnda berilgan.

SHundan keyin baqaning orqa oyoqlaridan ushlanib, qaychi bilan terisi, muskullari, ichki organlari kesiladi va tanasining old qismi bilan birga olib tashlanadi. Orqa oyoqlaridan terisi shilib olinadi. Buning uchun 2 ta salfetka olinib, biri umurtqa pog'onasining qoldig'idan, boshqasi baqa terisidan ushlanib, qo'lning tez harakati bilan teri uning orqa oyoqlaridan shilib olinadi. Ayrim tajribalarda foydalanish uchun baqaning orqa oyog'idan preparat olinadi (21-rasm, b).

Orqa oyoqlar preparati umurtqa pog'onasini qoldig'idan chap qo'lga olinadi, natijada dum suyagi yuqoriga bo'rtib chiqadi va u qaychi yordamida kesib tashlanadi (21-rasm, g). SHundan keyin qorin (ventral) tomonga ag'dariladi. Hosil bo'lgan darcha orqali ko'z nazoratida qaychi bilan orqa oyoqlar preparati umurtqa pog'onasini va tos suyaklari chigali nervlarini jarohatlamagan holda o'rtasidan uzunasiga kesiladi va orqa oyoqlaridan ikkita preparat olinadi (21-rasm, v, d). Hosil bo'lgan preparatning biri Ringer eritmasi bilan stakanda saqlanadi, ikkinchisidan esa nerv-muskul preparati tayyorlashda foydalani-ladi.

Nerv-muskul preparatini tayyorlash tovon (Axill) payi tomonidan boshlanadi. Axill payi tagiga qaychining bir dami o'tkazilib, boldir mushagi uzunasiga ajratiladi va Axill payi kesiladi. Payning so'nggi qismi pintset bilan ushlangan holda boldir mushagini atrofdagi boshqa to'qimalar bilan birlashtiruvchi fastsiya uziladi va boshqa tomonga ajratiladi.

Nervni preparovka qilishda preparat orqa (dorsal) tomonga ag'dariladi. Qo'llarning ikkala bosh barmoqlari yordamida son muskullari ikki tomonga ajratiladi va chuqurlikda yotgan nerv jildiriladi. SHisha ilgak yordamida nerv umurtqa pog'onasidan boshlab to tizza bo'g'imigacha ajratiladi. Keyin nerv chiqqan umurtqa pog'onasini nerv bilan tos suyagidan ajratib, kesib olinadi, quymich nervining taroklari kesiladi. Nervlar tizza bo'g'imigacha ajratilgach, orqa oyoqning tizza bo'g'imi yuqori va pastki qismlaridan kesiladi (21-rasm, j) va nerv-muskul preparati olinadi (21-rasm, z). Izolyatsiya qilingan muskul preparatini tayyorlash uchun nerv-muskul preparatidan nerv kesib tashlanadi (21-rasm, e).

Ishni rasmiylashtirishga doir tavsiyalar. Nerv-muskul preparatining rasmini chizib, uning qismlarini belgilab chiqing va undan qaysi maqsadlarda foydalanishni ko'rsating.

Mavzu

Bioelektrik xodisalar. Galvani-Matteuchi tajribasi

1.1. laboratoriya mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqti – 2 soat	Talabalar soni: 60 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual ma'ruza laboratoriya asbob uskunalaridan foydalangan holda

Laboratoriya mashg'ulotining rejasi	Bioelektrik xodisalar (Galvani tajribasi). B) Muskullarning turli tok kuchiga qisqarishi. V) Odam muskulining harakat potentsiallarini aniqlash. Parabioz..
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> «Bioelektrik xodisalar. Galvani-Matteuchi tajribasi Bioelektrik xodisalar (Galvani tajribasi).»	
Pedagogik vazifalar: - Bioelektrik xodisalar (Galvani tajribasi). B) Muskullarning turli tok kuchiga qisqarishi. V) Odam muskulining harakat potentsiallarini aniqlash. Parabiozni o'rghanish	<i>O'kuv faoliyati natijalari:</i> - Bioelektrik xodisalar (Galvani tajribasi). B) Muskullarning turli tok kuchiga qisqarishi. V) Odam muskulining harakat potentsiallarini aniqlash. Parabioz haqida ma'lumot oladi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Munozarali savol-javob, laboratoriya ishi bajariladi.
O'qitish vositalari	Laboratoriya asbob uskunalari.
O'qitish shakli	Jamoa bo'lib ishlash
O'qitish shart-sharoitlari	Kompyuter, proektor bilan jihozlangan o'quv xonasi.

Laboratoriya mashg'ulotining texnologik kartasi (1-mashg'ulot)

Bosqichlar, vaqtি	Faoliyat mazmuni	Talaba
	O'qituvchi	
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. mavzu maqsadi, mavzuning hal qilinishi kerak bo'lgan muammolari va o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi	1.1. Tinglaydi, yozib oladi, fikr bildiradi
2- bosqich. Asosiy (50 min.)	2.1. Talabalarning dastlabki bilimini tekshirish maqsadida qon olish texnikasi bo'yicha savol javob o'tkaziladi. 2.2. O'qituvchi laboratoriya jihozlaridan foydalanib baqani kesib qon olinadi.	2.1. Talabalar og'zaki savollarga javob beradi. 2.2. Talabalar tinglaydi va baqa qonini probirkaga olib cho'kish tezligi aniqlanadi.
3- bosqich. YAkuniy (20 min.)	3.1. Mavzuga yakun yasaydi, xulosalaydi. 3.2. Munozara savolarini o'rta ga tashlaydi va mavzu mustahkamlanadi 3.3. Uyga vazifa beriladi	3.1. Tinglaydi, tushunmagan savollar bilan murajaat qiladi. 3.2. Munazarada ishtirok etadi 3.3. Uyga vazifani yozib oladi.

Maqsad: Meditsinada kon olish texnikasi xakida tushuncha xosil kilish. Odam qonidagi eritrotsitlar va leykotsitlar miqdorini aniqlash. Qonning ivish tezligini aniqlash. Qonning ivish tezligiga harakatning va kaltsiy tuzining ta'siri»

Jihozlar: Tajriba uchun kerakli asbob uskunalar va mikroskop.

Dars jarayoni tartibi.

1. *Talabalarning laboratoriya mashg'ulotiga tayyorgarligini tekshirish* – talabaning tayyorgarligini og'zaki savol-javob orqali aniqlanadi. Talaba mavzu bo'yicha mikroskopdan va boshqa asbob uskunalardan foydalanish texnikasini bilishi kerak:

2. *Mavzuni va dars jarayonini o'qituvchi tomonidan yoritib berish* – o'qituvchi talabalar javoblarini umumlashtirib beradi va darsda qilinishi kerak bo'lgan jarayonlarni bayon etadi.

3. *Talabalarning o'quv jihozlari bilan tanishishi* – har bir talabaga (yoki har bir stolga) asbob uskunalar tarqatiladi. Talabalar asbob uskunalarini tablitsa va darslik orqali o'rganadi hamda mikropreparatlarni taqqoslaydi.

4. *Talabalarni baholash* – talabalar darsda faol qatnashganligi, savollarga bergan javoblari 5 balli sistema asosida baholanadi

5. *Uyga vazifa* mavzusi bo'yicha nazariy bilimga ega bo'lisch.

6. *Darsni yakunlash* – mikroskoplardan preparatlarni olib idishiga joylash, mikroskopni kichik ob'ektiviga olib shkaflarga joylash, tablitsalarni va al'bomlarni joyiga quyish.

3-ISH. QO'ZG'ALUVCHI TO'QIMALARDA BIOELEKTRIK HODISALAR GALBVANI TAJRIBALARI (I va II-tajribalar)

Qo'zg'aluvchi to'qimalardagi bioelektrik hodisalar biologik yo'l yoki elektrofiziologik usullar bilan aniqlanishi mumkin.

Galbvanining birinchi tajribasi. Ish anjomlari: bimetall pintset, preparovka asboblari yig'indisi, jomcha, universal shtativ, doka salfetkalar, Ringer eritmasi, baqa.

Tajriba o'tkazish tartibi. Baqaning oyoqlaridan 2 ta preparat tayyorlanib, shtativga osiladi. Mis va temirdan yasalgan bimetall pintset olinadi. Pintsetning mis qismi umurtqa pog'onasidan chiqayotgan nerv tugunlariga, temir qismi esa bir vaqtida muskulka tekkiziladi. Oyoq muskullarining qisqarishi kuzatiladi.

Ishni rasmiylashtirishga doir tavsiyalar. Tajriba sxemasini chizing, muskulning qisqarish sababi to'g'risida xulosa chiqaring.

Galbvanining ikkinchi tajribasi (metallsiz qisqarish). Galbvan-ning ikkinchi tajribasi yordamida jarohatlangan va jarohatlanmagan muskul sathlarida "hayvon toki" borligi birinchi marta isbotlangan. Agar ana shu 2 ta o'rniga nerv-muskul preparatinining nervi shisha ilgak yordamida bir vaqtida tekkizilsa, tinchlik toki hosil bo'lib, u nervni ta'sirlaydi va muskulning qisqarishiga sababchi bo'ladi.

Ish anjomlari: preparovka asboblari yig'indisi, jomcha, ko'ztomizgich, shishadan yasalgan ilgak, doka salfetkalar, Ringer eritmasi, baqa.

Tajriba o'tkazish tartibi. Baqaning orqa oyoqlaridan preparat tayyorlanadi. O'tirgich nervi yaxshilab ajratilgach umurtqa pog'onasidan kesib olinadi. Sonning pastki uchi bir qismidagi muskul kesilishi va shu zahotiyoyq kesilgan nerv shisha ilgak yordamida kesilgan muskulka shunday tekizilishi kerakki, nerv bir vaqtida jarohatlangan va jarohatlanmagan joyga tegsin (24-rasm). Bu holda ham muskul qisqarishi sodir bo'ladi.



24-rasm. Galbvanining 2-tajribasi (quymich nervini son mushagiga tashlash usuli ko'rsatilgan).

Ishni rasmiylashtirishga doir tavsiyalar. Tajriba sxemasini chizing, xulosada baqa mushagini qisqarish sabablarini tushuntirib bering.

4-ISH. BAQANING BOLDIR MUSHAGI "KUCH-VAQT" EGRI CHIZIG'INING TUZILISHI

To'qimada javob reaksiyasi paydo bo'lishi uchun doim tokning qo'zg'atuvchi ta'siri faqat uning kuchiga emas, balki ta'sir qilish vaqtiga ham bog'liq.

To'qimaga chegaralanmagan vaqt ichida ta'sir qilish qo'zg'alish chaqira oladigan eng oz tok kuchi r e o b a z a deyiladi. Qo'zg'alish olish uchun bitta reobaza ta'sir etishi kerak bo'lgan eng oz vaqt esa foydali vaqt deb ataladi.

Ish anjomlari: xronaksimet, maxsus elektrodlar, parafin quyilgan vannacha, baqani mahkamlash uchun to'g'nog'ich, millimetrl qog'oz (15x20 sm) varag'i, fiziologik eritma, baqa.

Tajriba o'tkazish tartibi. Baqa harakatsizlanriladi va vannachaga chalqancha joylashtiriladi. Og'ziga fiziologik eritma bilan ho'llangan passiv elektrod (plastinka) kiritiladi, aktiv elektrod (igna) boldir mushagiga sanchiladi. Xronaksimet murvati "reobaza" rejimiga qo'yilib, tokning kuchlanishi bosqichli tarzda oshirib boriladi. Kalit tez tutashtirilib, tokning pog'ona kuchi — reobaza topiladi va topilgan reobazaning kattaligi volynda (V) yozib olinadi. Keyin murvat "xronaksiya" rejimiga qo'yiladi va kondensator sig'imini tanlab, 1; 1,31 2; 4; 10; 20 reobazaga teng kuchlanish bilan pog'ona davomliligi topiladi.

Ishni rasmiylashtirishga doir tavsiyalar. Olingan natijalarga muvofiq millimetrl qog'ozga pog'onaning ta'sir qilish vaqt egri chizig'ini tasvirlang. Abstsissa o'qiga pog'ona ta'sirlashning davomlilagini millisekund (ms) da ordinata o'qi bo'yicha kuchlanishi esa volynda ifodalangan grafikda reobazani belgilang. Ta'sirlashning pog'ona kuchi va uning ta'sir qilish vaqt o'rtasidagi bog'liqligi to'g'risida xulosa chiqaring.

ODAMDA HARAKAT XRONAKSIYASINI ANIQLASH

To'qimalarning ko'zg'aluvchanligini xarakterlash uchun faqat ta'sirlagichning pog'ona kuchinigina emas, balki uning ta'sir qilish vaqtini ham hisobga olish muhimdir. SHu munosabat bilan to'qimalarning qo'zg'aluvchanligini to'la xarakterlash uchun fiziologiya va klinikada "xronak-siya" tushunchasi kiritilgan. Bu eng qisqa vaqtini ifodalovchi shartli kattalik bo'lib, shu vaqt ichida ikki reobazaga teng bo'lgan tok kuchi to'qimaga ta'sir etib, unda qo'zg'alish chaqirishi kerak.

Ish anjomlari: xronaksimet, maxsus elektrodlar, salvetka, fiziologik eritma. Tekshirish odamda olib boriladi. Tajriba o'tkazish tartibi. Indifferent (farqsiz) elektrod (anod) tagiga fiziologik eritma bilan ho'llangan doka bilakning ichki sathiga mahkamlanadi. Harakat nuqtasi topiladi. Buning uchun apparat "xronaksiya" rejimiga qo'yilib, kuchlanishi 40—50 V va kondensator 0,5—1 m kf ga ulanadi. Fiziologik eritma bilan yaxshilab ho'llangan elektrod (katod) yordamida qarama-qarshi bilakdag'i panjalarni bukuvchi muskulning harakat nuqtasi aniqlanadi (23-rasm, bilak ichki sathining pastki 2/3 qismi).



23-rasm. Qo'l muskullarida harakat nuqtalarining joylanish sxemasi.

O'q chiziqcha (strelka) bilan panjani umumiy bukish harakat nuqtasi ko'rsatilgan.

Apparat "reobaza" rejimiga qo'yiladi. Aktiv elektrod topilgan harakat nuqtasiga tekkizilib, kuchlanishning pog'ona kattaligi — reobaza aniqlanadi. Bukuvchi muskulda qisqarish yuzaga chiqquncha tokning kuchlanishi asta-sekin oshirib boriladi. SHkala bo'yicha reobazaning attaligi belgilanadi. Keyin asbob "xronaksiya" rejimiga ulanadi. Tokning kuchlanishi 2 ta reobazaga teng bo'lgan holda xronaksiya aniqlanadi.

Ishni rasmiylashtirishga doir tavsiyalar. Xronaksiya qo'zg'aluvchan to'qimalarning qaysi xossalari haqida xulosa chiqarishga imkon berishini tushuntirib bering. Reobaza va xronaksiyaning muayyan hajmini standart ko'rsatkichlar bilan solishtiring.

5-ISH. NERV VA MUSKULNING QO'ZG'ALUVCHANLIGINI TAQQOSLASH (MUSKULNI VOSITASIZ VA VOSITALI TA'SIRLASH)

Qo'zg'aluvchi to'qimalarning eng asosiy fiziologik xossalardan biri ko'zg'aluvchanlik bo'lib, bu xossa har bir to'qimalarda turlichadir. Qo'zg'aluvchanlyk darajasini xarakterlash uchun ta'sirlash pogonasi xizmat qilib, bu javob reaktsiyasi chaqira oladigan minimal ta'sirlash kuchidir.

Tajriba sharoitlarida muskullarning qo'zg'aluvchanligini aniqlash uchun to'g'ridan-to'g'ri, ya'ni bevosita muskulni ta'sirlash usuli qo'llaniladi. Nervning qo'zg'aluvchanligi esa muskulni innervatsiya qiluvchi nervni ta'sir-lash, ya'ni muskulni vositali ta'sirlash usuli bilan tekshiriladi.

Ish anjomlari: vertikal miograf, stimulyator, ta'sirlovchi elektrodlar, kimograf, universal shtativ, preparovka asboblari yig'indisi, jomcha, ko'ztomizgich, doka salfetkalar, Ringer eritmasi, baqa.

Tajriba o'tkazish tartibi. Nerv-muskul preparati tayyorlanadi. Boldir mushagi miografga mahkamlanadi. Buning uchun miografning yuqori kronshteyniga qotirilgan ilgak bilan tizza-bo'g'im xaltasi teshiladi, tovon payi esa miografning pastki kronshteynidagi ilgakka mahkamlanadi. Miografning yuqori kronshteyniga maxsus mufta yordamida ta'sirlovchi elektrodlar mustahkam tirkalgan bo'lib, unga nerv-muskul preparatining nervi joylashtiriladi (bu mufta vazifasini Gel'smgolis stolchasi bajarishi mumkin, ish davrida tanishtiriladi — *tarjimon*). elektrodlar stimulyatorning klemmalariga ulanadi. Nervga uzlusiz davom etadigan, masalan, 0,5 ms, yakka ta'sirlar yuborib, uning darajasi asta-sekin oshiriladi. Muskulning quyi, yuqori va eng yuqori qisqarishlarini belgilang va ortib boruvchi ta'sirlash kuchiga muskulnig nima uchun aynan shunday javob berishini tushuntirib bering.


6-ISH. MUSKULLARNING QISQARISHINI YOZISH VA TAHLIL QILISH

Muskul yakka qisqarishining yoyilgan egri chizig'ini yozish va tahlil qilish. Skelet mushagi qisqa muddat davom etadigan yakka ta'sirlashga bir marta qisqarish bilan javob beradi. Muskulning yoyilgan bor qisqarishini tez aylanuvchi barabanli kimograf yoki fal's-apparat yordamida yozib olish mumkin. Muskulning yoyilgan yakka qisqarishini 3 ta fazaga ajratish mumkin: 1) latent (yashirin) davr (ta'sirlash boshlangandan keyin qisqarish paydo bo'lguncha ketgan vaqt); 2) qisqarish fazasi; 3) bo'shashish fazasi boldir mushagining yakka qisqarish tsikli 0,11—0,12 shundan latent davr 0,01 s, qisqarish fazasi 0,05 bo'shashish fazasi 0,05—0,06 s davom etadi.

Ish anjomlari: fal's-apparat yoki tez aylanuvchi kimograf, vertikal miograf, universal shtativ, preparovka asboblari yig'indisi, ko'ztomizgich, jomcha, vaqtini qayd qiluvchi asbob, doka salfetkalar, Ringer eritmasi, baqa.


Tajriba o'tkazish tartibi. Baqaning boldir mushagidan preparat tayyorlanadi va vertikal miografga mahkamlanadi. Miograf vinti yordamida miograf richagi (yozgich qismi) gorizontal holatda o'rnatiladi, fal's-apparati ramkasi esa o'ng tomonga jildirilib, ilgak mahkamlab qo'yiladi (27-rasm, a). Fal's-apparat tokka ulanadi va qarshilik (K) yordamida qo'zg'alishning shunday kuchi tanlandiki, natijada muskul etarli miqdorda kuchli qisqarishni rivojlantirsin. Tok uzbek (10) bilan birinchi ta'sirlash kontakti (7) ulanadi. Muskulni ta'sirlash paytini belgilash uchun kareta uni ushlab turuvchi fiksatoridan bo'shatiladi va asta-sekin birinchi kontaktga shunday yaqinlashtiriladiki, shunda kareta kontaktga tegib, zanjirni ulaydi va muskul qisqaradi. Karetaga yozilgan vertikal chiziq ta'sirlash vaqtini ifoydalaydi (YA rasm, v). SHu vaqtning o'zida izochiziq ham yozib olingan hisoblanadi. So'ng kareta avvalgi holatiga keltiriladi. Buning uchun u ilgakdan bo'shatib yuboriladi, natijada kontakt uzilib, muskulka ta'sir o'tkaziladi va yakka qisqarish yozib olinadi. YAKKA qisqarish ostiga kamerton bilan vaqtini belgilovchi egri chiziq yozib olinadi. YAKKA qisqarish fazalarining davomiyligini aniqlash uchun vaqtini belgilovchi egri chiziqqa muskulning yakka qisqarish egri chizig'i ma'lum nuqtalaridan tik (perpendikulyar chiziq) tushirilishi kerak.

Ishni rasmiylashtirishga doir tavsiyalar. Tajriba sxemasi tasvirini chizing, muskulning yoyilgan egri yakka qisqarish kimogrammasini daftarga yopishtirib qisqarish fazalarini va ularning davomiyligini aniqlang.



27-rasm. Muskullarning yakka qisqarishini yozish va taxlil qilish uchun qurilma sxemasi.

a) falb-apparat; 1) rama; 2) yo'naltiruvchilar; 3) karetkani joyidan ko'chirish uchun yuk; 4) karetka; 5) egri chiziqni yozish uchun qog'oz quygich; 6) karetka fiksatori; 7—8) osma kontaktlar; 9) yakka ta'sirlagichlar hosil qiluvchi elektrik sxema; 10-11) uzgichlar; D - diod, R - qarshilik, R_1 - o'zgaruvchan qarshilik; S-sig'im; b) vertikal miografga mahkamlangan muskul bilan shtativ; v) muskul yakka qisqarishining egri chizig'i. 1) kontaktlarning uzelish payti; 2) latent qisqarishining egri chizig'i; 3) qisqarish fazasi; 4) bo'shashish fazasi.



28-rasm. Tetanusning har xil turlari. 1) yakka qisqarish; 2) tishli tetanus; 3) silliq tetanus; 4) optimim (eng yaxshi), 5) pessimum (eng yomon).

Tishli va silliq tetanus (28-rasm). Organizmda muskullar markaziy nerv sistemasidan ritmik ravishda kelayotgan impulslar ta'sirida qisqaradi. Muskullarga impulslar yuqori chastota bilan kelib, muskulning yakka qisqarish davomiyligini oshiradi, natijada muskul barcha qismlarining uzoq va kuchli darajada qisqarishi bilan belgilanuvchi hamda tetanus nomini olgan qisqarishlar yig'indisi yuz beradi. Faqat tajriba o'tkazish orqali titanusni yozib olish va kelib chiqish mexanizmini tahlil qilish mumkin. Agar muskulka 10—20 Gts ga ega bo'lган ritmik ta'sir o'tkazilsa, keyin kelayotgan har bir impul muskulning bo'shashish fazasiga to'g'ri keladi va bu vaqtida tishli tetanus paydo bo'ladi. Agar muskulni ta'sirlash chastotasi yanada oshirilsa, ya'ni 20—40 Gts gacha ko'paytirilsa, kelayotgan har bir impul muskulning qisqarish (kichrayish) davriga to'g'ri keladi va natijada muskulning to'xtovsiz, uzoq muddatli qisqarishi boshlanadi. Bunday qisqarish silliq tetanus deyiladi

Ish anjomlari: vertikal miograf, stimulyator, kimograf, universal shtativ, preparovka asboblari yig'indisi, ko'ztomizgich, jomcha, doka salfetkalar, Ringer eritmasi, baqa.

Tajriba o'tkazish tartibi. Baqaning boldir mushagidan preparat tayyorlanadi va stimulyatorga ulangan miografga mahkamlanadi. Kimograf barabaniga miograf yozgichi yaqinlashtiriladi. Kimograf ishga tushirilib, 2—3 ta'sirlash orqali muskulning yakka qisqarishi yozib olinadi. SHundan keyin, ta'sirlash chastotasi 10—20 Gts ga etkazilib tishli tetanus 20—40 Gts gacha oshirilgach, silliq tetanus yozib olinadi.

Ishni rasmiylashtirishga doir tavsiyalar. Olingan kimogrammani daftaringizga yopishtiring, yakka va tetanik qisqarish darajalarini solishtiring, tishli va silliq tetanusning sodir bo'lish sharoitini tushuntiring.

Mavzu	Ayirish organlari fiziologiyasi
--------------	--

1.1. laboratoriya mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqti – 2 soat	Talabalar soni: 60 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual ma'ruza laboratoriya asbob uskunalaridan foydalangan holda
Laboordinatoriya mashg'ulotining rejasi	Odam tanasining turli qismlarida teri haroratini o`lchash: (organizmning tinch holatida va jismoniy mashq jarayondan so`ng). O`tkir tajribada siyidik (diurezini) tarkibini o`rganish.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> «Ayirish organlari fiziologiyasi va Odam tanasining turli qismlarida teri haroratini o`lchash»	
Pedagogik vazifalar:	<i>O'kuv faoliyati natijalari:</i> - Odam tanasining turli qismlarida teri haroratini o`lchash: (organizmning tinch holatida va jismoniy mashq jarayondan so`ng). O`tkir tajribada siyidik (diurezini) tarkibini o`rganish ma'lumot oladi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Munozarali savol-javob, laboratoriya ishi bajariladi.
O'qitish vositalari	Laboratoriya asbob uskunalarini.
O'qitish shakli	Jamoa bo'lib ishslash
O'qitish shart-sharoitlari	Kompyuter, proektor bilan jihozlangan o'quv xonasi.

Laboratoriya mashg'ulotining texnologik kartasi (1-mashg'ulot)

Bosqichlar, vaqt	Faoliyat mazmuni	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. mavzu maqsadi, mavzuning hal qilinishi kerak bo'lgan muammolari va o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi	1.1. Tinglaydi, yozib oladi, fikr bildiradi
2- bosqich. Asosiy (50 min.)	2.1. Talabalarning dastlabki bilimini tekshirish maqsadida qon olish texnikasi bo'yicha savol javob o'tkaziladi. 2.2. O'qituvchi laboratoriya jihozlaridan foydalaniib baqani kesib qon olinadi.	2.1. Talabalar og'zaki savollarga javob beradi. 2.2. Talabalar tinglaydi va baqa qonini probirkaga olib cho'kish tezligi aniqlanadi.
3- bosqich. YAkuniy (20 min.)	3.1. Mavzuga yakun yasaydi, xulosalaydi. 3.2. Munozara savolarini o'rtaga tashlaydi va mavzu mustahkamlanadi 3.3. Uyga vazifani yozib oladi.	3.1. Tinglaydi, tushunmagan savollar bilan murajaat qiladi. 3.2. Munazarada ishtirok etadi 3.3. Uyga vazifani yozib oladi.

Maqsad: Meditsinada kon olish texnikasi xakida tushuncha xosil kilish. Odam qonidagi eritrotsitlar va leykotsitlar miqdorini aniqlash. Qonning ivish tezligini aniqlash. Qonning ivish tezligiga harakatning va kaltsiy tuzining ta'siri»

Jihozlar: Qon olish uchun kerakli asbob uskunalar va mikroskop.

Dars jarayoni tartibi.

1. Talabalarning laboratoriya mashg'ulotiga tayyorgarligini tekshirish – talabaning tayyorgarligini og'zaki savol-javob orqali aniqlanadi. Talaba mavzu bo'yicha mikroskopdan va boshqa asbob uskunalaridan foydalanish texnikasini bilishi kerak:

2. Mavzuni va dars jarayonini o'qituvchi tomonidan yoritib berish – o'qituvchi talabalar javoblarini umumlashtirib beradi va darsda qilinishi kerak bo'lgan jarayonlarni bayon etadi.

3. Talabalarning o'quv jihozlari bilan tanishishi – har bir talabaga (yoki har bir stolga) asbob uskunalar tarqatiladi. Talabalar asbob uskunalarni tablitsa va darslik orqali o'rganadi hamda mikropreparatlarni taqqoslaydi.

4. Talabalarni baholash – talabalar darsda faol qatnashganligi, savollarga bergen javoblari 5 balli sistema asosida baholanadi

5. Uyga vazifa mavzusi bo'yicha nazariy bilimga ega bo'lish.

6. Darsni yakunlash – mikroskoplardan preparatlarni olib idishiga joylash, mikroskopni kichik ob'ektiviga olib shkaflarga joylash, tablitsalarni va al'bobmlarni joyiga quyish.

38-ISH. SIYDIKNING MIQDORI, TARKIBI VA XOSSALARI.

Ishdan maqsad. Siydikning miqdori, tarkibi va xossalari o'rganish.

Bir sutkada odamdan chiqadigan siydikning umumiyligi miqdori keng ko'lamda o'zgarib turadi va o'rta hisobda 1,5 litrni tashkil qiladi. Siydikning solishtirma og'irligi 1,012-1,020, muzlash nuqtasi $-1,3-2,2^{\circ}\text{S}$. Siydikda qariyb 4% qattiq modda bor. Kishi ko'p terlaganda, masalan issiq iqlim sharoitida ter bilan suv chiqib ketganidan so'ng siydik miqdori kamayadi. Bundan tashqari kishi uxlagan vaqtida, ayniqsa, qattiq uyqu vaqtida siydik hosil bo'lishi keskin kamayadi. Ovqatdan so'ng ovqatdagagi suv va tuzlar ichakdan so'riliishi tufayli kontsentratsiyasi va solishtirma og'irligi past bo'lgan siydik odatda ko'proq chiqadi.

Siydik tarkibi. Buyraklar oqsilning parchalanishidan hosil bo'ladigan azotli moddalar – mochevina, siydik kislotosi, ammiak, purin asoslari, kreatin va indikanni organizmdan chiqarib yuboruvchi asosiy yo'ldir. Siydikdagi azotning 90% gachasi mochevinaga to'g'ri keladi. Siydikdagi mochevinanining kontsentratsiyasi qariyb 2%. Odatda odam siydigida 0,5% siydik kislotosi bor. Normal siydikda parchalanmagan oqsillar bo'lmaydi. Siydikda oqsil paydo bo'lishi odatda buyrak kasalligidan darak beradi. Biroq og'ir jismoniy ish vaqtida buyrak filtri o'tkazuvchanligining ortishi sababli sog'lom odam siydigida ham oqsil paydo bo'lishi mumkin. Bu holat biroz dam olishdan so'ng avvalgi asliga keladi. Qondagi qand kontsentratsiyasi 150-180 mg foizdan oshmasa siydikda qand bo'lmaydi. Faqat giperglikeniyada u qanday sabablar bilan kelib chiqqanidan qat'iy nazar, siydikda glyukoza bo'ladi. Bu organik moddalaridan tashqari siydikda unga sariq rang beruvchi pigmentlar ham bor. Bu pigmentlar ichakda o'tdagagi bilirubindan hosil bo'ladi. Bilirubin ichakda urobilin va uroxromga aylanadi. Bular esa ichak devori orqali qonga so'rildidida, keyin buyraklar orqali chiqib ketadi. Siydik bilan asosan natriy xlorid (10-15 g), kaliy xlorid (3-3,5 g), sul'fatlar (2,5 g), fosfatlar (2,5 g) kabi bir talay anorganik tuzlar bir sutkada 15-25 g chiqib ketadi.

18-Mashg'ulot

Issiqlik almashinuv fiziologiyasi

Mashg'ulotga tayyorlanish uchun savollar

1.Tana xarorati nima? Odamda uni o'zgarish me'yori.

2.Qaysi xayvonlar poykiloterm va gomoyoterm hisoblanadi?

3.Fizik va kimyoviy

termoregulyatsiyaning farqi nima?

4.Organizmga issiqlik kirish

manbalari.

5.Issiqlik almashinuvi

gumoral boshqarilishi.

Rejalashtirilgan nazorat natijalari

Rejestratsiyaning halosat natijalar						
Savollar №						
Javoblar №						
Natija						

Baho

O'qituvchining imlosi

1-ish. Tanani turli qismlarida haroratni o'lchash, $t^0S/$

Peshona-----

Burun -----

CHakka

Bo'yn -

Ko'krak -----

Qultiq osti -----

Elka suyagi terisi:
Ольга Суяги Териси:

Oldingi qismi -----

Orqa qismi -
Ko'plig'i -

Kindik atrofie-----
Bildende-----

Bilak uzuk -----
Baplacon orloj'i;

Panjaitan orang I
Boldirai orang gajam

Boldırımlı orqa qışını -----
Dumba

Ko'krakni orqa qismi (terisi)-----

Ko'rukliq orqa qisim (terisi) _____
Toyon papjalari _____

Tovon parjutari

2-ish. Odam tanasining ichki haroratini o'zgarishi.

2-ish. Odam tanasining ichki haroratini o'zgarishi.

3- ish. Termoregulyatsiya energetikasi

1. 200gr. Ter ajralganda qancha miqdorda energiya sarflanadi.

2. Tajribadagi odam tana $t^0=20S$ ko'tarish uchun qancha energiya kerak bo'ladi. Odamning tana og'irligi 70 kg.

1. 70kg odam 1 soat issiqlik chiqarmasa, uning tana harorati qanchaga ko'tariladi.

Bajarilgan vaqtি

O'qituvchining imzosi

Mavzu	Reflektor yoyini tahlil qilish
-------	--------------------------------

1.1. laboratoriya mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqti – 2 soat	Talabalar soni: 60 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual ma'ruza laboratoriya asbob uskunalaridan foydalangan holda
Labooratoriya mashg'ulotining rejasi	Refleks vaqtini aniqlash va reflektor yoyining tahlili

<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> «Reflektor yoyni tahlil qilish Refleks vaqtini aniqlash va reflektor yoyning tahlili »	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - Nerv-muskul sinapsida qo'zg'alish o'tkazilishining buzilishi ma'lumot oladi. I.M. Sechenov tajribasi Refleks vaqtini aniqlash va Reflektor yoyning tahlilini o'rghanish	<i>O'kuv faoliyati natijalari:</i> - Nerv-muskul sinapsida qo'zg'alish o'tkazilishining buzilishi ma'lumot oladi. I.M. Sechenov tajribasi Refleks vaqtini aniqlash va Reflektor yoyning tahlili
O'qitish uslubi va texnikasi	Munozarali savol-javob, laboratoriya ishi bajariladi.
O'qitish vositalari	Laboratoriya asbob uskunalarini.
O'qitish shakli	Jamoa bo'lib ishlash
O'qitish shart-sharoitlari	Kompyuter, proektor bilan jihozlangan o'quv xonasi.

Laboratoriya mashg'ulotining texnologik kartasi (1-mashg'ulot)

Bosqichlar, vaqtি	Faoliyat mazmuni	Talaba
	O'qituvchi	
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. mavzu maqsadi, mavzuning hal qilinishi kerak bo'lgan muammolari va o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi	1.1. Tinglaydi, yozib oladi, fikr bildiradi
2- bosqich. Asosiy (50 min.)	2.1. Talabalarning dastlabki bilimini tekshirish maqsadida qon olish texnikasi bo'yicha savol javob o'tkaziladi. 2.2. O'qituvchi laboratoriya jihozlaridan foydalanib baqani kesib qon olinadi.	2.1. Talabalar og'zaki savollarga javob beradi. 2.2. Talabalar tinglaydi va baqa qonini probirkaga olib cho'kish tezligi aniqlanadi.
3- bosqich. YAkuniy (20 min.)	3.1. Mavzuga yakun yasaydi, xulosalaydi. 3.2. Munozara savolarini o'rtaga tashlaydi va mavzu mustahkamlanadi 3.3. Uyga vazifa beriladi	3.1. Tinglaydi, tushunmagan savollar bilan murajaat qiladi. 3.2. Munazarada ishtirok etadi 3.3. Uyga vazifani yozib oladi.

Maqsad: Meditsinada kon olish texnikasi xakida tushuncha xosil kilish. Odam qonidagi eritrotsitlar va leykotsitlar miqdorini aniqlash. Qonning ivish tezligini aniqlash. Qonning ivish tezligiga harakatning va kaltsiy tuzining ta'siri»

Jihozlar: Tajriba uchun kerakli asbob uskunalar va mikroskop.

Dars jarayoni tartibi.

1. *Talabalarning laboratoriya mashg'ulotiga tayyorgarligini tekshirish* – talabaning tayyorgarligini og'zaki savol-javob orqali aniqlanadi. Talaba mavzu bo'yicha mikroskopdan va boshqa asbob uskunalaridan foydalanish texnikasini bilishi kerak:

2. *Mavzuni va dars jarayonini o'qituvchi tomonidan yoritib berish* – o'qituvchi talabalar javoblarini umumlashtirib beradi va darsda qilinishi kerak bo'lgan jarayonlarni bayon etadi.

3. *Talabalarning o'quv jihozlari bilan tanishishi* – har bir talabaga (yoki har bir stolga) asbob uskunalar tarqatiladi. Talabalar asbob uskunalarini tablitsa va darslik orqali o'rganadi hamda mikropreparatlarni taqqoslaysidi.

4. *Talabalarni baholash* – talabalar darsda faol qatnashganligi, savollarga bergen javoblari 5 balli sistema asosida baholanadi

5. *Uyga vazifa* mavzusi bo'yicha nazariy bilimga ega bo'lish.

6. *Darsni yakunlash* – mikroskoplardan preparatlarni olib idishiga joylash, mikroskopni kichik ob'ektiviga olib shkaflarga joylash, tablitsalarni va albbomlarni joyiga quyish.

7-ISH. NERV-MUSKUL SINAPSIDA QO'ZG'ALISH O'TKAZILISHINING BUZILISHI

Nerv-muskul sinapsi kimyoviy moddalarga, qisman miorelaksantlar (kurare, listenon va boshq.) ga o'ta sezuvchi bo'ladi. Bunday moddalar ta'sir etganda, qo'zg'alishning nervdan muskulka o'tishi to'xtaydi, ya'ni vositali ta'sirlashda muskul qisqarmaydi, ammo u vositasiz ta'sirlashga javob beradi.

Ish anjomlari: stimulyator, elektrodlar, vannacha, preparovka asboblari yig'indisi, jomcha, ligatura, 1 ml li shprits, listenon yoki kurare, baqa.

Tajriba o'tkazish tartibi. Baqa markaziy nerv sistemasini buzish bilan harakatsizlanadi. Baqa vannachaga qorin tomoni bilan mahkamlanadi. Baqaning ikkala son terisi uzunasiga kesilib, son muskullari 2 tomonga siljilib (qon tomirlarni jarohatlamay), o'tirgich nervlari topiladi. Ikkala nerv ostidan ligatura alohida o'tkaziladi, lekin bog'lanmaydi. "Darcha" yordamida boldir muskullari yalang'ochlanadi. Qon aylanishini to'la bartaraf qilish maqsadida oyoqlardan birining son muskullari ip bilan mahkam bog'lanadi (o'tirgich nervi ligatura ustida qoladi). Baqaning orqa limfatik qoplariga 1,5 ml listenon yoki kurare yuboriladi. 10—15 min. o'tgach, o'tirgich nervlari tartib bilan alohida ritmik ravishda tok bilan ta'sirlanadi va son, boldir muskullarining qisqarishi kuzatiladi.

Endi tartib bilan ikkala oyoqning boldir muskullari alohida-alohida vositasiz ta'sirlanadi va ularning ham qisqarishi kuzatiladi.

Ishni rasmiylashtirishga doir tavsiyalar. Tajriba sxemasini chizing, xulosalarda ikkala o'tirgich nervi ta'sirlanganda, oyoqlarning reaktsiyasini, shu bilan birga boldir muskullari vositasiz ta'sirlangandagi tajriba natijasini tushuntiring va listenon yoki kurare ta'sir qilgan joy haqida xulosa chiqaring.

8-ISH. I.M. SECHENOV TAJRIBASI.

Ishdan maqsad: Adashgan nerv yadrosini qitiqlab yurak faoliyatiga ta'sirini o'rganish. YUrak faoliyati markaziy nerv sistemasi tomonidan boshqarilib turadi. Ma'lumki, adashgan nerv yadrosi uzunchoq miyada 4 – qorincha tubida, rombsimon chuqurchada joylashgan. Adashgan nervni periferik qismini ta'sirlanganda yurak faoliyati susaygan. Xuddi shu tajribani Sechenov bevosita adashgan nerv yadrolarini ta'sirlab ham tekshirgan va bir xil natija olgan.


Ishning borishi: Oddiy yo'l bilan baqani ustki jag'ini ko'zining orqasidanoq kesib tashlanadi. So'ng uni probirkali plpstinkaga qornini pastka qaratib mahkam qo'yiladi. Astalik bilan uzunchoq miya ochiladi va rombsimon chuqurchani topib, u erga Ringer eritmasi shimdirilgan paxta tamponi qo'yiladi. Keyin baqani oldini o'girib, yuragi ochiladi va 1 minutda urilgan soni sanaladi. Uzunchoq miyaga qo'yilgan tompon olinib, uning o'rniiga osh tuzining kichkina kristalchasi qo'yiladi. Bir necha minut davomida yurakning urishlari soni sanaladi. YUrak faoliyati susaya boradi va sistola fazasida to'xtab qoladi. YUrakning to'xtashi adashgan nervlar yadrosini osh tuzi bilan ta'sirlab, qo'zg'alishdan kelib chiqadi. So'ng kristalni olib tashlab, uzunchoq miya yuzasini fiziologik eritma bilan yuviladi va yana sanaladi. YUrak faoliyati bir necha minutdan so'ng tiklanadi.

Ishni bajarishga doir tavsiyalar: yurak faoliyatining to'xtashiga adashgan nervlar yadrosini osh tuzi bilan ta'sirlanishidan kelib chiqqanligini va olib tashlangandan so'ng yurak faoliyati tiklanishini kuzatib daftaringizga yozing.

9-ISH. REFLEKS VAQTINI ANIQLASH VA REFLEKTOR YOYNING TAHLILI

Reflektor faoliyat chaqirish uchun qo'zg'alishning bosib o'tgan yo'liga reflektor yoyi deyiladi. Umumiyo ko'rinishda reflektor yoyining sxemasini beshta qismdan iborat deb tasavvur qilish mumkin:

1) retseptor; 2) afferent qismi (afferent neyron); 3) markaziy qismi (oraliq neyron); 4) efferent qismi (efferent neyron); 5) ishchi a'zo (effektor) (31-rasm).



31-rasm. Reflekslarning yoy sxemasi.

- 1) retseptor; 2) afferent zveno; 3) markaziy zveno;
- 4) harakatlantiruvchi zveno; 5) effektor; K — oraliq neyron.

Refleks sodir bo'lishi uchun reflektor yoy bir butun bo'lishi zarur. Undagi istagan biror qismining ishdan chiqarilishi reflektor faoliyatning yo'qolishiga olib keladi.

Reflektor yoyning ayrim qismlarini ketma-ket ishdan chiqarish yo'li bilan ularning har birining funktsional ahamiyatini o'rganish mumkin.

Ish anjomlari: ilmoqli shtativ, preparovka uchun asboblar yig'indisi, jomcha, shisha ilmoqchasi, paxta, 0,5% va 1% novokain eritmasi, sul'fat kislotasining 0,5-1% eritmasi, stakan suvi bilan, baqa.

Tajriba o'tkazish tartibi. Orqa miya reflekslari spinal baqada o'rganiladi. Buning uchun baqaning boshi, uning jag'lari orasiga qaychining dami kiritilib, ensaning katta teshiklari sathidan kesib olib tashlanadi. Pastki jag' qoldiriladi va baqa pastki jag'idan shtativdagi ilmoqqa ilinadi. Tajribani bir necha minutdan so'ng, spinal karaxtlik holati o'tib ketgandan keyingina boshlash mumkin.

Stakanga sul'fat kislotasining 0,5% li eritmasidan quyiladi va unga baqaning orqa oyog'i boldir tovon bo'g'imigacha tushiriladi, bunda baqa oyogini tortib oladi. SHu tarzda baqa oyog'iga ta'sirot berilgandan to javob re-aktsiyasi sodir bo'lguncha ketgan vaqtini aniqlash yo'li bilan refleks vaqtini aniqlanadi. Himoyalanish refleksi borligi aniqlangach, baqa oyog'ini bir necha marta stakandagi suvgaga tushirish yo'li bilan terida qolgan sul'fat kislota qoldig'i yuviladi. Bu ish har safar sul'fat kislota bilan ta'sirlangandan keyin qaytarilib, miyaning kesilgan joyiga suv tushmasligiga harakat qilinadi. SHunday yo'l bilan refleks vaqtini aniqlanib, uni ko'p jihatdan ta'sirlash kuchiga bog'liq ekanligini isbotlash mumkin bo'ladi. Reflektor yoyni tahlil qilish uning ba'zi qismlarini ishdan chiqarish yo'li bilan amalgalash oshiriladi.

Birinchi bo'lib, teri retseptori mustasno qilinadi. Buning uchun baqaning orqa oyog'i terisi tizzanning pastrog'idan doira shaklida kesilib, oyoqdan paypoqni echgani kabi shilib olinadi. Natijada oyoq teri retseptoridan judo qilinadi.

Panja oxirlarida terining qolmasligi muhimligi (agar birorta panjada saqlanib qolgudek bo'lsa, panjani qirqib tashlash kerak, aks holda tajriba chiqmay qolishi mumkin) ni kuzatish zarur. So'ng baqa oyog'i kislota eritmasiga tushiriladi va refleks yo'qolganiga ishonch hosil qilinadi.

Ikkinchisida, quymich nervining afferent tolalari mustasno qilinadi. Buning uchun terisi olinmagan boshqa oyog'idan qaychi bilan sonning orqa yuzasidagi terisi kesiladi. ehtiyyotkorlik bilan shisha ilgak yordamida tomir-larni jarohatlamay, quymich nervi ajratiladi va uning tagidan bog'lam o'tkaziladi. Bog'lam orqali nerv ko'tarilib nerv ostiga uncha katta bo'limgan, novokain bilash ho'llangan paxta piligi joylashtiriladi.

Quymich nervi aralash hisoblanib, unda sezuvchi (afferent) va harakatlantiruvchi (efferent) tolalar bor. Novokainning bevosita ta'siri natijasida nerv stvolidagi impulslarni o'tkazish oldin sezuvchi, keyin harakatlantiruvchi nerv tolalarida to'xtaydi.

Oradan 1—2 min o'tgach, baqaning oyog'i kislotaga tushiriladi, bukilish refleksi yo'qolganiga ishonch hosil qilinadi. Baqaning orqa terisiga 1% sul'fat kislotasiga ho'llangan qog'oz qo'yiladi. Bunda umumiy harakat reaksiyalari vujudga kelib, novokain bilan ta'sir qilingan oyoq ham ishtirot etadi. Demak, sezuvchi tolalarda o'tkazuvchanlik yo'qoldi, harakat tolasida esa yana saqlanib qoldi.

Agarda nerv uzoq vaqt davomida novokain ta'sirida bo'lsa, unda o'tkazuvchanlik harakatlantiruvchi tolalarda ham yo'qoladi. Nervga novokain ta'sir qilina boshlagandan 4—5 min o'tgach, baqaning orqasiga kislotaga ho'llangan qog'oz yopishtirganimizda nervi novokain ta'siriga duchor bo'lgan oyoq umumiy reaksiyalarda qatnashmaydi. SHundan qilib, nervning impulslari o'tkazuvchanligi faqat sezuvchi tolalardagina emas, balki harakatlantiruvchi tolalarda ham yo'qoladi. Nerv stvoldida to'liq falajlik holati vujudga keladi.

Oxirida nerv markazlari ishdan chiqariladi. Buning uchun orqa miya zond bilan buziladi. Orqa miyani buzgandan so'ng hech qanday reflekslarni chaqirish mumkin bo'lmay qoladi.

Mavzu	Shartli reflekslar hosil bo`lishini o`rganish
--------------	--

1.1. laboratoriya mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqti – 2 soat	Talabalar soni: 60 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual ma'ruza laboratoriya asbob uskunalaridan foydalangan holda
Laboordinatoriya mashg'ulotining rejasi	Shartli reflekslarning hosil bo`lishi va uning tormozlanishi. Shartli reflekslarning so`nishi va differentsirovka hosil qilish. Odamning yurak-tomir ishiga shartli refleks hosil qilish. Odamda qo`ng`iroq tovushiga va «qo`ng`iroq» so`ziga ko`z qorachig`ini kengaytiruvchi shartli refleks hosil bo`lishi. Odamda emotsional holatni yaratishda og`zaki ta`sirlanishning rolini o`rganish
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> «Shartli reflekslar hosil bo`lishini o`rganish»	
Pedagogik vazifalar:	<i>O'kuv faoliyati natijalari:</i> - Shartli reflekslarning hosil bo`lishi va uning tormozlanishi. Shartli reflekslarning so`nishi va differentsirovka hosil qilish. Odamning yurak-tomir ishiga shartli refleks hosil qilish. Odamda qo`ng`iroq tovushiga va «qo`ng`iroq» so`ziga ko`z qorachig`ini kengaytiruvchi shartli refleks hosil bo`lishi. Odamda emotsional holatni yaratishda og`zaki ta`sirlanishning rolini o`rganish
O'qitish uslubi va texnikasi	Munozarali savol-javob, laboratoriya ishi bajariladi.
O'qitish vositalari	Laboratoriya asbob uskunalari.
O'qitish shakli	Jamoa bo`lib ishlash
O'qitish shart-sharoitlari	Komp'yuter, proektor bilan jihozlangan o'quv xonasi.

Laboratoriya mashg'ulotining texnologik kartasi (1-mashg'ulot)

Bosqichlar, vaqtি	Faoliyat mazmuni	Talaba
	O'qituvchi	
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. mavzu maqsadi, mavzuning hal qilinishi kerak bo`lgan muammolari va o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi	1.1. Tinglaydi, yozib oladi, fikr bildiradi
2- bosqich. Asosiy (50 min.)	2.1. Talabalarning dastlabki bilimini tekshirish maqsadida qon olish texnikasi bo'yicha savol javob o'tkaziladi. 2.2. O'qituvchi laboratoriya jihozlaridan foydalaniб baqani kesib qon olinadi.	2.1. Talabalar og`zaki savollarga javob beradi. 2.2. Talabalar tinglaydi va baqa qonini probirkaga olib cho'kish tezligi aniqlanadi.
3- bosqich. YAkuniy (20 min.)	3.1. Mavzuga yakun yasaydi, xulosalaydi. 3.2. Munozara savolarini o'rta ga tashlaydi va mavzu mustahkamlanadi 3.3. Uyga vazifa beriladi	3.1. Tinglaydi, tushunmagan savollar bilan murajaat qiladi. 3.2. Munazarada ishtirok etadi 3.3. Uyga vazifani yozib oladi.

Maqsad: Meditsinada kon olish texnikasi xakida tushuncha xosil kilish. Odam qonidagi eritrotsitlar va leykotsitlar miqdorini aniqlash. Qonning ivish tezligini aniqlash. Qonning ivish tezligiga harakatning va kaltsiy tuzining ta'siri»

Jihozlar: Tajriba uchun kerakli asbob uskunalar va mikroskop.

Dars jarayoni tartibi.

1. *Talabalarning laboratoriya mashg'ulotiga tayyorgarligini tekshirish* – talabaning tayyorgarligini og'zaki savol-javob orqali aniqlanadi. Talaba mavzu bo'yicha mikroskopdan va boshqa asbob uskunalardan foydalanish texnikasini bilishi kerak:

2. *Mavzuni va dars jarayonini o'qituvchi tomonidan yoritib berish* – o'qituvchi talabalar javoblarini umumlashtirib beradi va darsda qilinishi kerak bo'lgan jarayonlarni bayon etadi.

3. *Talabalarning o'quv jihozlari bilan tanishishi* – har bir talabaga (yoki har bir stolga) asbob uskunalar tarqatiladi. Talabalar asbob uskunalarini tablitsa va darslik orqali o'rGANADI hamda mikropreparatlarni taqqoslaydi.

4. *Talabalarni baholash* – talabalar darsda faol qatnashganligi, savollarga bergan javoblari 5 balli sistema asosida baholanadi

5. *Uyga vazifa* mavzusi bo'yicha nazariy bilimga ega bo'lish.

6. *Darsni yakunlash* – mikroskoplardan preparatlarni olib idishiga joylash, mikroskopni kichik ob'ektiviga olib shkaflarga joylash, tablitsalarni va al'bomlarni joyiga quyish.

**MARKAZIY NERV SISTEMASIDA QO'ZG'ALISHNING IRRADIATSIYASI
(TARQALISHI) VA MARKAZIY NERV SISTEMASIDAGI QO'ZG'ALISHLARNING SUMMATSİYASI**

**Markaziy nerv sistemasida qo'zg'alishning
irradiatsiyasi (tarqalishi)**

Markaziy nerv sistemasida qo'zg'alishning tarqalish hodisasi irradiatsiya nomini oldi. Tarqalishni tajriba hayvonlarning MNSdagi tormozlovchi sinapslarni bog'lab qo'yuvchi strixnin (kuchala) yordamida kuzatish mumkin.

Ish anjomlari: ilmoqli shtativ, preparovka uchun asboblar yig'indisi, jomcha, likob, qopqoq, ignasi bilan shprits, 0,1% strixnin eritmasi, baqa.

Tajriba o'tkazish tartibi. Spinal baqa tayyorlanadi. Pintset bilan orqa oyoq panjalari kuchsiz qisiladi va reaksiya kuzatiladi. Keyin ta'sirlash kuchi asta-sekin kuchaytirib boriladi va reflektor reaksiyalarga boshqa oldingi va orqa oyoqlarning ham qo'shilishi kuzatiladi. Bu tajriba avvaldan muzda sovutilgan baqada yaxshi namoyon bo'ladi.

O'sha spinal baqaning orqa teri ostiga 0,5 ml 0,1% strixnin eritmasi yuboriladi. Bir ozdan so'ng baqaga biror narsa bilan tegizilsa, umumiyl titrash (sudorogi) kuzatiladi. Bu esa himoyalanish refleksi emas.

Ishni rasmiylashtirishga doir tavsiyalar. Tajriba sxemasini chizing. Irradiatsiyaga ifoda bering. MNSga strixninning ta'sir mexanizmini tushuntiring.

YUqoridagi ishdan ko'rindan, nerv markazlarining faoliyatidagi xossalardan biri ularning inertligidir va ular neyronlaridagi qo'zg'alishlarning qo'shilish qobiliyatidir. Bu jarayonning 2 xil asosiy me-xanizmi tafovut qilinadi: vaqtli va fazoviy qo'shilish.

Qo'zg'alishning vaqtli qo'shilishi.

Ish anjomalari: stimulyator, 2 ta sim, jarrohlid stoli, preparovka uchun asboblar yig'indisi, jomcha, doka sal-fetkalar, paxta, baqa.

Tajriba o'tkazish tartibi. Ish talamik baqada olib boriladi. Buning uchun baqaning boshi ko'z orqasidan kesiladi va jarrohlid stoliga qo'yiladi. Orqa oyoqlaridan birga stimulyatorga ulangan elektrodlar mahkamlanadi. elektrodlar sifatida stimulyatordan kelayotgan simlar xizmat qilishi mumkin. Ular tizza

bo'g'imining tepe va pastiga bir-biridan 0,5 sm uzoqlikda o'raladi. Bo'sag'a (pog'ona) ta'sirot kuchi topiladi. So'ng 1 Gts va 20—50 Gts chastotadagi ta'sirot berilganda reaktsiyalar kuzatiladi.

Ishni rasmiylashtirishga doir tavsiyalar. Ishning natijasini yozishda e'tiboringizni ko'proq baland chastota bilan ta'sirlanganda harakat reaktsiyalarining o'zgarishiga qarating. Kuzatilayotgan hodisalarning sababini tushuntiring.

Qo'zg'alishning fazoviy qo'shilishi

Ish anjomlari: preparovka uchun asboblar yig'indisi, jomcha, paxta, metronom yoki sekundomsr, ilmoqli va probkali shtativ, 0,1%, 0,3%, 0,5% sulbat kislota eritmalari, suv uchun stakan, baqa.

Tajriba o'tkazish tartibi. Talamik baqaning pastki jag'idan shtativ ilmog'iga olinib, ilmoq uchiga probka kiydiriladi (ish vaqtida baqaning ilmoqdan chiqib ketmasligi uchun) va qon to'xtaguncha kutiladi.

Fazoviy qo'shilishni bukilish refleksida kuzatish mumkin. Buning uchun baqaning orqa oyoq panjalarining uchi bo'sag'a kontsentratsiyasidagi kislota tushiriladi va refleks vaqtini aniqlanadi. Baqa panjalarini kislota tushgandan to uni tortib olungacha ketgan vaqt metronom zarbasi (yoki sekundomer) yordamida topiladi va bu refleks vaqtini bo'ladi. Keyin baqaning oyog'ini stakandagi vodoprovod suvida yuvib, oyoqlar kafti butunlay solib refleks vaqtini aniqlanadi.

Ishni rasmiylashtirishga doir tavsiyalar. Ikkala holatda refleks vaqtini belgilang. Oyoqlar kafti butunlay kislota tushirilganda refleks vaqtini nima uchun o'zgaradi? Ketma-ket yoki vaqtli va fazodagi qo'shilishini tushuntiruvchi sxemani aytинг.

11-ISH. STRIXNIN VA NARKOZNING MNS GA TA'SIRI.

Ishdan maqsad. Strixnin ta'sirida reflektor reaktsiyalarning o'zgarishini kuzatish.

Nazariy tushuncha. Markaziy nerv sistemasi ba'zi bir zaharlarga, jumladan strixning maxsus sezuvchanligi bilan alohida xususiyat kasb etadi.

Baqaning terisi ostiga stirixnin yuborib zaharlanganda markaziy nerv sistemasining qo'zg'aluvchanligi hamda o'tkazuvchanligi ortadi va koordinatsiya mexanizmlari buziladi.

Ish uchun kerakli jihozlar: Baqa, shisha qalpoq, 1 g li shprits, strixnining 0,1% li eritmasi.

Ishni bajarish tartibi. Baqaning orqa yoki qorin terisi ostiga shprits bilan strixnining 0,1% li eritmasidan 1 ml yuborib uni shisha qalpoq tagiga qo'yiladi. So'ng vaqt-vaqt bilan shisha qalpoqni ko'tarib baqaga kuchsiz ta'sirot berilsa, sekin asta reflektor reaktsiyalarning o'zgarib borayotgani, ya'ni qo'zg'aluvchanlikning ortishi kuzatiladi va bora-bora terisining qaysi uchastkasi ta'sirlanmasin baqa hamma oyoqlarini harakatlantirish bilan javob beradi. Qo'zg'alish irradiatsiyalanishi natijasida oldin ayrim qaltirashlar, keyin esa umumiylar qaltirash yuzaga keladi. Baqa sakrashga harakat qilib oyoqlarini yozgan holda qorin bilan erga uriladi. Bu harakat koordinatsiyasi buzilganligining ifodasıdir.

12-ISH. ORQA MIYA REFLEKSLARI. MARKAZIY TORMOZLANISH.

Sechenov tajribasi. Nerv faoliyatining asosida aktiv karama-qarshi funktsiyaga ega bo'lgan qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari yotadi.

Tormozlanish deb shunday jarayonga aytildiki, bunda faoliyat pasayadi yoki unga qarshilik qilinadi, Birinchi bo'lib, eksperimentda (ilmiy tajribada) MNS dagi tormozlanishni 1862 yilda I.M.Sechenov ilmiy tajribada kuzatdi va u "Sechenov tajribasi" nomini oldi.

Baqa bosh miyasining ko'ndalang kesimi ta'sirlanganda shu narsa kuzatiladi, agar oraliq miya ta'sirlansa, orqa miya reflekslari haddan tashqari susayib ketadi va natijada sulbat kislota eritmasiga tushirilgan oyog'ini baqa tortib olmaydi yoki refleks vaqtini ancha cho'zilib ketadi. Bu klassik tajriba orqali nerv faoliyatining ikkinchi tomoni bo'lmissiz tormozlanish aniqlangan edi.

Ish anjomlari: ilmoqli shtativ va probka, preparovka uchun asboblar yig'indisi, ko'z tomizgich, paxta, Pean qisqichi, jomcha, 0,14%, 0,25% va 0,5% sulbat kislota eritmalari, Ringer eritmasi, suvli stakan, osh tuzi kristallari, baqa.

Tajriba o'tkazish tartibi. Baqa boshi ochiq qoldirilgan holda salfetkaga o'raladi. Keyin qaychining dami bilan burun teshigi orqasidan teri ozroq ko'ndalang kesiladi. Kesimning ikki yon tomonidan baqaning terisi tanasiga qadar qing'ir kesiladi. Teri qiyqindisi pastga qaytariladi va suyaklar orqali baqaning bosh miyasi arang ko'rindi. Kichkina qaychi bilan bosh suyak qopqog'i tepe tomonidan kesiladi. Uning uchun kesilgan teri oldidan suyak ozroq ko'ndalang qilib kesiladi va ehtiyyotkorlik (miyani jarohatlamaslik uchun)

bilan qaychining bir dami bosh suyak qopqog'ining ich tomoniga qisilgan holda ikki tomondan suyak qopqog'i kesib, olib tashlanadi va bosh miya ochiladi.

Oliy hayvonlarning bosh miyasiga o'xshab, baqa miyasi ham besh qismidan tashkil topgan (34-rasm).



34-rasm. 1) bosh miya yarimsharlari; 2) oraliq miya; 3) o'rta miya;
4) miyacha; 5) uzunchoq miya.

Miya sathi tampon bilan quritilib diqqat bilan ko'rilib, katta yarim sharlarning pastki qismidan nashtar yordamida kesiladi. Kesimning yuqori qismidagi miya olib tashlanadi. Baqa pastki jag'idan ilgakka ilinib, qon to'xta-guncha kutiladi, so'ng ichidan qon ehtiyyotkorlik bilan olib tashlanadi, kesilgan sath esa tampon yordamida quritilib, tajriba o'tkazishga kirishiladi. 0,25% sul'fat kislotasining eritmasidan ta'sirlovchi sifatida foydalanib, orqa oyoqlarning bukish refleks vaqtini aniqlanadi. Har bir oyoq uchun refleks vaqtini 1—2 minut oralig'ida 2 marta tekshiriladi.

Metronom urishi 1 minutda 100 marta bo'lsa, refleks vaqtini 7-12 urishi orasida bo'ladi. Agar bu vaqt qisqa bo'lsa, kuchsizroq kislota eritmasini olish kerak (0,1%). Har bir aniqlashdan keyin baqaning panjalari stakandagi suvda yaxshilab yuviladi.

Refleks vaqtini aniqlangandan so'ng, paxta tamponchalari bilan bosh miyaning qirqilgan joyi quritiladi, so'ng katta bo'lмаган ош тузи kristalli qo'yiladi va birinchi minutdayoq refleks vaqtini o'lchanadi. Natijada refleks vaqtini tezda cho'ziladi, misol 25—35 urilishgacha (yoki oyoq 50 marta urilish davomida tortib olinmaydi, ya'ni refleks yo'q). So'ng tuz kristallari olinadi va kesilgan miya Ringer eritmasi bilan yuviladi.

Eslatma. Agar tuz kristalli qo'yilgandan keyin, tortishish paydo bo'lsa, bu miyaning pastki qismlariga tuz oqib ketganidan dalolat beradi. Miya yuvilib, u ehtiyyotkorlik bilan paxta yordamida quritiladi va tajriba takror-lanadi. Sechenov tormozlanishi baqa to'la tinch holatda bo'lgandagina yuzaga chiqadi.

Ta'sirlovchi olib tashlangandan 5 min o'tgach, refleks vaqtini yana o'lchanadi va refleks vaqtining oldindi ko'rsatkichlariga qaytgani kuzatiladi.

Mavzu | Analizatorlar, ko`rish analizatori

1.1. laboratoriya mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqti – 2 soat	Talabalar soni: 60 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual ma'ruza laboratoriya asbob uskunalaridan foydalangan holda
Labooratoriya mashg'ulotining rejasi	Ko`rish va eshitish sezgirligini aniqlash: Ko`z qorachig`ining yorug`likka, akkomadatsiyasi va og`riq ta`sirotiga reflektor reaksiyalari. Yaqin va uzoqdan buyumlarni ko`rish. Ko`zning ko`rish maydonini tekshirish. Ko`rish o`tkirligini aniqlash. Tovush yo`nalishini aniqlash. Teri analizatorlari termoesteziometriya issiqlik, sovuqlik

	va og`riqni sezish nuqtalarini aniqlash. Ko`rish va eshitish sezgirligini aniqlash.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> «Ko`z qorachig`ning yorug`likka, aakkomadatsiyasi va og`riq ta`sirotiga reflektor reaktsiyalari»	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'kuv faoliyati natijalari:</i>
- Ko`rish va eshitish sezgirligini aniqlash: Ko`z qorachig`ning yorug`likka, aakkomadatsiyasi va og`riq ta`sirotiga reflektor reaktsiyalari. Yaqin va uzoqdan buyumlarni ko`rish. Ko`zning ko`rish maydonini tekshirish. Ko`rish o`tkirligini aniqlash.Tovush yo`nalishini aniqlash.Teri analizatorlari termoesteziometriya issiqlik, sovuqlik va og`riqni sezish nuqtalarini aniqlash. Ko`rish va eshitish sezgirligini aniqlashni o`rganish	- Ko`rish va eshitish sezgirligini aniqlash: Ko`z qorachig`ning yorug`likka, aakkomadatsiyasi va og`riq ta`sirotiga reflektor reaktsiyalari. Yaqin va uzoqdan buyumlarni ko`rish. Ko`zning ko`rish maydonini tekshirish. Ko`rish o`tkirligini aniqlash.Tovush yo`nalishini aniqlash.Teri analizatorlari termoesteziometriya issiqlik, sovuqlik va og`riqni sezish nuqtalarini aniqlash. Ko`rish va eshitish sezgirligini aniqlashma'lumot oladi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Munozarali savol-javob, laboratoriya ishi bajariladi.
O'qitish vositalari	Laboratoriya asbob uskunalarini.
O'qitish shakli	Jamoa bo'lib ishlash
O'qitish shart-sharoitlari	Kompyuter, proektor bilan jihozlangan o'quv xonasi.

Laboratoriya mashg'ulotining texnologik kartasi (1-mashg'ulot)

Bosqichlar, vaqtি	Faoliyat mazmuni	Talaba
	O'qituvchi	
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. mavzu maqsadi, mavzuning hal qilinishi kerak bo'lgan muammolari va o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi	1.1. Tinglaydi, yozib oladi, fikr bildiradi
2- bosqich. Asosiy (50 min.)	2.1. Talabalarning dastlabki bilimini tekshirish maqsadida qon olish texnikasi bo'yicha savol javob o'tkaziladi. 2.2. O'qituvchi laboratoriya jihozlaridan foydalanib baqani kesib qon olinadi.	2.1. Talabalar og'zaki savollarga javob beradi. 2.2. Talabalar tinglaydi va baqa qonini probirkaga olib cho'kish tezligi aniqlanadi.
3- bosqich. YAkuniy (20 min.)	3.1. Mavzuga yakun yasaydi, xulosalaydi. 3.2. Munozara savolarini o'rtaga tashlaydi va mavzu mustahkamlanadi 3.3. Uyga vazifani yozib oladi	3.1. Tinglaydi, tushunmagan savollar bilan murajaat qiladi. 3.2. Munazarada ishtirok etadi 3.3. Uyga vazifani yozib oladi.

Maqsad: Meditsinada kon olish texnikasi xakida tushuncha xosil kilish. Odam qonidagi eritrotsitlar va leykotsitlar miqdorini aniqlash. Qonning ivish tezligini aniqlash. Qonning ivish tezligiga harakatning va kaltsiy tuzining ta'siri»

Jihozlar: Tajriba uchun kerakli asbob uskunalar va mikroskop.

Dars jarayoni tartibi.

1. *Talabalarning laboratoriya mashg'ulotiga tayyorgarligini tekshirish* – talabaning tayyorgarligini og'zaki savol-javob orqali aniqlanadi. Talaba mavzu bo'yicha mikroskopdan va boshqa asbob uskunalardan foydalanish texnikasini bilishi kerak:

2. *Mavzuni va dars jarayonini o'qituvchi tomonidan yoritib berish* – o'qituvchi talabalar javoblarini umumlashtirib beradi va darsda qilinishi kerak bo'lgan jarayonlarni bayon etadi.

3. *Talabalarning o'quv jihozlari bilan tanishishi* – har bir talabaga (yoki har bir stolga) asbob uskunalar tarqatiladi. Talabalar asbob uskunalarini tablitsa va darslik orqali o'rganadi hamda mikropreparatlarni taqqoslaydi.

4. *Talabalarni baholash* – talabalar darsda faol qatnashganligi, savollarga bergan javoblari 5 balli sistema asosida baholanadi

5. *Uyga vazifa* mavzusi bo'yicha nazariy bilimga ega bo'lish.

6. *Darsni yakunlash* – mikroskoplardan preparatlarni olib idishiga joylash, mikroskopni kichik ob'ektiviga olib shkaflarga joylash, tablitsalarni va al'bomlarni joyiga quyish.

15-ISH. ANALIZATORLAR. KO'RISH O'TKIRLIGINI ANIQLASH.

Ishdan maqsad. Ko'rish o'tkirligini aniqlash.

Ko'rish o'tkirligi - ko'rish analizatori ajrata oladigan ikkita buyum o'rtasidagi eng kichik masofadir. Normal ko'z, ko'rinish burchagi 1 gradus bo'lgan ikkita nurli nuqtani farqlash xususiyatiga ega. Bunday ko'zning ko'rish o'tkirligi bir deb qabul qilinadi. Ko'rish o'tkirligini aniqlash uchun Golovin jadvalidan foydalilaniladi. Bu jadval 12 qator har xil kattalikdagi harflardan iborat. Harflar yuqorida pastga tushgan sari kichrayib boradi (69-rasm).



69- rasm. Kўриш ўткирлигини аниқлаш жадвали.

Zarur jihozlar: karton parchasi, ko'rish o'tkirligini aniqlash uchun jadval, ko'rsatish uchun tayoqcha.

Ishni bajarish tartibi. Jadval yaxshi yoritilgan devorga osiladi. Sinaluvchi jadvaldan 5 m uzoqdagi stulda o'tiradi. Har bir ko'zining ko'rish o'tkirligi alohida aniqlanadi. Sinaluvchi bir ko'zini ekran (karton parchasi) bilan bekitib turib, tekshiruvchi tayoqcha bilan ko'rsatayotgan harflarni eshitirib o'qiydi. Tekshirishda yirik harflarni ko'rsatishdan asta-sekin maydaroq harflarga o'tiladi. Xato qilmNSdan o'qiladigan harflarning oxirgi qatori ko'rish o'tkirligini bildiradi. Ikkinchisi ko'z ham xuddi shu tartibda tekshiriladi. Normal ko'zning ko'rish o'tkirligi 1,0-2,0 bo'ladi.

Ko'rish o'tkirligi quyidagi formulaga asosan hisoblab chiqariladi:

$$V = \frac{a}{D};$$

bunda - V -ko'rish o'tkirligi, a -tekshiriluvchi bilan tablitsa o'rtasidagi masofa, D -normal ko'z shu qatordagi harflarni aniq ko'rishi kerak bo'lgan masofa.


Ishni bajarishga doir tavsiyalar: Tajriba natijasini quyidagi shaklda daftarga yozing:

Tekshiriladigan ko'z	Ko'rish o'tkirligi
o'ng	
chap	

Normal ko'zning ko'rish o'tkirligi bilan taqqoslab xulosa chiqaring

16-Ish. KO'RISH MAYDONINI ANIQLASH

Ko'z bir nuqtaga qarab turganda, atrofdagi ko'zga ko'rinish maydoni ko'rish maydoni deb ataladi. Odamlarda ko'rish maydon har xil bo'lib, bu ko'z soqqasining formasiga, uning joylanish chiqurligiga, qosh usti yoyi va burunning shakliga hamda to'r qavatning funktional holatiga bog'liq. Rang (xromatik) va rangsiz (axromatik) ko'rish maydoni farqlanadi. Axromatik ko'rish maydoni xromatik ko'rish maydonidan katta bo'ladi, chunki axromatik ko'rish to'r qavatning assosan chet (periferik) qismida joylashgan tayoqchalarning faoliyati bilan bog'langan. Har xil ranglar uchun ko'rish maydoni bir xil bo'lmay, balki sariq rang uchun eng katta, yashil rang uchun esa eng tor. Axromatik ko'rish maydonining chegarasi quyidagicha: tashqaridan — 100° gacha, ichki va yuqoridan — 60° va pastdan — 65° (**75-rasm**).



75-rasm. Axromatik va xromatik ko'rish maydonining perimetrik surati.

SHartli belgilar: 1) oq-qorani ko'rish maydoni; 2) sariq rang uchun ko'rish maydoni; 3) ko'k rang uchun ko'rish maydoni; 4) qizil rang uchun ko'rish maydoni; 5) yashil rang uchun ko'rish maydoni.

Ish anjomlari: Forster perimetri, har xil rangli markalar (belgilar), tsirkul, chizg'ich, rangli qalamlar.
Tajriba o'tkazish tartibi. Ko'rish maydoni Forster perimetri yordamida aniqlanadi. Perimetr yorug'lik qarshisiga o'rnatiladi. Tekshiriluvchi yorug'likka nisbatan orqa tomoni bilan o'tirgach, perimetr shtativining o'yilgan joyiga iyagini qo'yadi. Agar chap ko'zning ko'rish maydoni aniqlanadigan bo'lsa, iyak taglik (podstavka)ning o'ng qismiga qo'yiladi. Taglikning balandligi shunday boshqariladiki, bunda ko'z kosasining pastki chegarasi shtativning yuqori chegarasiga to'g'ri kelsin. Tekshiriluvchi nigoh pe-rimetr markazidagi oq nuqtaga qaratilgani holda, ikkinchi ko'z qo'l bilan yopilishi kerak (**76-rasm**).



Perimetri yoyi gorizontal holatga qo'yilib, o'lchash boshlanadi. Buning uchun oq marka yoyning ichki yuzasi bo'ylab 90° dan 0° ga tomon sekin olib kelinadi va tekshiruvchi oq nuqtaga qarab turgani holda markani ko'rayotganini aytish kerak. Tekshiruvchi to'g'ri kelgan burchakni aniqlab, ikkinchi marta yana tekshiradi. Ko'zning qancha ko'p meridiani bo'yicha ko'rish maydoni aniqlansa, shuncha u aniq bo'ladi. Bu usulni egallab olish uchun 2 ta asosiy meridian: gorizontal (tashqi, ichki) va vertikal (yuqori, pastki) bo'yicha aniqlash bilan chegaralanish mumkin.

Oq marka rangli markaga almashtirilib, yuqoridagi usulga asosan rang ko'rish maydoni aniqlanadi va tekshiruvchi faqat markani ko'rMSdan, balki uning rangini ham aniq bilishi kerak. Ko'rish maydonini ko'k yoki bir necha ranglarda aniqlash mumkin.

Ishni rasmiylashtirishga doir tavsiyalar. Tekshirish natijalarini jadvalga yozing.

Ko'rish maydonining chegaralari

Yo'nalihi	Ko'rish maydonining gradusdagi kattaligi	
	Oq rangga	YAshil rangga
YUqoridan		
Pastdan		
Tashqaridan		
Ichkaridan		

Olingan natijalarga asoslanib, 2 ta rang uchun ko'rish maydonini chizing, oq va yashil ranglar uchun ko'rish maydonini taqqoslang va ular o'rtasidagi farqlar sababini tushuntiring.

17-Ish. KO'R DOG'NI TEKSHIRISH (MARIOTGA TAJRIBASI).

Ishdan maqsad: ko'r dog'i mavjudligiga ishonch hosil qilish. Ko'zning to'r qavatida shunday bir kichik maydoncha borki, u erda yorug'lik sezuvchi retseptorlar yo'q bu ko'rish nervini chizish joyidir. Agar predmetdan kelayotgan nurlar shu dog'ga to'g'ri kelib qosa, shu predmet ko'rinnmaydi (yoki nurlar ko'r dog'ini kesib o'tguncha). Ko'r dog'i sariq dog'dan 3,5-4mm uzoqlikda turadi.

Ishning borishi: chap ko'z bekitiladi (kaft bilan to'siladi) qo'lga oq doira va krest shakli tushirilgan rasmni olib, oq krestga nigohni qaratadigan holda rasmni tazminan 35 sm uzoqlikdan oldinga olib kelinadi. Ma'lum bir masofada (taxminan 20 sm) doira ko'rinnmaydi. Bu shuni ko'rsatadiki, undan kelayotgan nur ko'r dog'iga to'g'ri kelib qoladi.

ESHITISH O'TKIRLIGINI ANIQLASH.

Ishdan maqsad: eshitish o'tkirligini aniqlash yo'llari bilan tanishish.

Eshitish o'tkirligi deganda, tekshiriluvchining o'zidan 1 metr narida diametri 2-3 mm ga teng sharchani 8 mm balandlikdan metall plastinka ustiga tushirilganda hosil qilgan ovozni sezalish qobiliyati tushuniladi. eshitish o'tkirligi har bir studentda aniqlanadi (har bir qulqoq uchun alohida). Buning uchun odiy usul – 2-3 mm diametrndagi po'lat sharchani turli balandlikdan metall plastinka ustiga tashlash usulidan foydalanish mumkin. SHarchani 1, 2, 3 mm va hokaza balandlikdan tashlanadi.

1 metr uzoqlikda o'tirgan tekshiriluvchi birinchi bor ovozini eshitganda, darhol tekshiruvchiga aytadi. Ikkinchisi qulqoq ham xuddi shu yo'l bilan tekshiriladi. Bu usul bilan normal eshitish o'tkirligiga 1 m uzoqlikdan 8 mm balandlikdan tushgan 2-3 mm diametrli sharchani ovozini eshitish bilish qabul qilinadi. eshitish o'tkirligini yana boshqa yo'l bilin aniqlash mumkin. Tekshiriluvchi eksperimentatoridan 4-5 m nariga borib, orqasini o'girib bir qulog'ini berkitadi. Tekshiruvchi turli harflarni aytib, asta-sekin tekshiriluvchidan uzoqlashadi, toki u harflarni adashib ayta boshlaguncha. Ko'rsatib o'tilgan usullar elementar va dag'al bo'lib, hozirgi vaqtida klinik maqsadlar uchun maxsus lampali generatorlar va audiometrlarda qo'llaniladi.

Ishni rasmiylashtirishga doir tavsiyalar. eshitish analizatorlari sxemasini chizib uning periferik, o'tkazuvchi va markaziy qismini belgilang.

Rinne tajribasi (tovushni havo va suyak orqali o'tkazuvchanligi).

Ishdan maqsad: Tovush to'lqinlarining havo va suyak o'tkazuvchanligini tekshirish. Normal sharoitda havo o'tkazuvchanligini suyak orqali o'tkazuvchanligidan yuqori bo'ladi. Bunda quyidagi tajribada ishonch hosil qilish mumkin.

Ishning borishi: Tekshirish studentlarda olib boriladi. Jaranglayotgan kamertonni so'rg'ichsimon o'simta oldiga olib kelinadi. Tovush eshitiladi, asta-sekin so'na boshlaydi va nihoyat yo'qoladi. Tovush eshitilmay qolgani zahoti kamertonni qulqoqa olib kelinadi tovush yana eshitiladi.

Reaktsiyaning bunday tipi (normal eshitishda) "musbat Renne" deb yuritiladi. Tovush o'tkazuvchi apparat jarohatlanganda esa aksincha hodisa ro'y beradi "manfiy Renne". Rinne tajribasining klinik ahamiyati nima?

Ishni rasmiylashtirishga doir tavsiyalar. Rinne tajribasining klinik ahamiyatini o'rganib, tahlil qiling.

19-ISH. ODAMDA QISQA MUDDATLI ESHITUV XOTIRASI HAJMINI ANIQLASH

Tashqi muhitning o'zgaruvchan sharoitlariga odam va oliy hayvonlarning individual moslashuvining muhim faktori ana shu o'zgarishlar to'grisida olingan axborotlar va taassurotlar asosida orttirilgan tajribalarga muvofiq ravishda o'z fe'l-atvorini o'zgartirish qobiliyatidir. Odam xotirasini tafakkur va ong asosida vujudga keluvchi omil bo'lib, uning ruhiy kamolotini asosini tashkil qiladi. Axborotlarning yodda saqlanish muddatiga ko'ra, xotira qisqa va uzoq muddatli xillarga ajratiladi. Qisqa muddatli xotira axborotlarning hajmi va yodga tushirish tezligi, saqlanish mustahkamligi va xotira izlarining aniq qaytadan tiklanishini xarakterlaydi.

Ish anjomlari: bir xonali raqamlardan tuzilgan jadval. SHunday jadvallardan biri quyida keltirilgan.

Qator №	Qatordagi sonlar miqdori									
	1.	2.	3.	4.	5.	6.	7.	8.	9.	10.
1.	9	7	2							
2.	1	4	6	3						
3.	3	9	1	4	8					
4.	4	6	8	2	5	3				
5.	3	5	1	6	4	8	2			
6.	2	4	7	5	8	3	9	6		
7.	5	8	6	7	4	1	3	9	8	
8.	6	5	8	3	9	2	5	4	8	7

Tajriba o'tkazish tartibi. Qisqa muddatli eshitish xotirasini hajmini aniqlash uchun ko'p sonlar miqdori tanlab olinishi kerakki, tekshirilayotgan odam uni bir marta eshitishidayoq, xotirasida saqlashi va aniq qaytarib bera olishi kerak. Ishni guruhdagi barcha studentlarda bir vaqtning o'zida olib borish mumkin. O'qituvchi birinchi qatordagi sonlarni o'qiydi. Talabalar uni to'la eshitib olganlaridan so'ng, eslab qolgan sonlarni daftarlariiga yozadilar. So'ng o'qituvchi ikkinchi qatordagi sonlarni o'qiydi, studentlar, yuqoridagidek, avval eshitib oladilar, so'ng daftarlariiga yozishadi va h. k. SHunday qilib, hamma qatordagi sonlar o'qiladi va studentlar xotirada saqlab qolganlarini o'z daftarlariiga yozadilar.

SHundan so'ng, o'qituvchi yana hamma qatordagi sonlarni o'qib qaytaradi, talabalar daftariga yozgan sonlarni tekshiradilar. Agar 1, 2, 3-qatorlar to'g'ri va aniq ketma-ketlikda yozilgan bo'lsa-yu, ammo 4-qatorda xatolik topilsa (sonlar tartibining o'zgarib qolishi, qator kattaligi, sonlarning noto'g'ri yozilishi kabi) u holda xotiraning hajmi 3-qatordagi sonlar miqdoriga teng bo'ladi, ya'ni besh bo'ladi.

Ishni rasmiylashtirishga doir tavsiyalar. Qisqa muddatli eshituv xotira hajmi odamda o'rtacha 7 ga teng bo'ladi, shuning uchun o'zingizning xotirangiz hajmini hisoblab, uni qisqa muddatli xotira hajmining o'rtacha ko'rsatkichi bilan solishtiring.

З-амалий иш

ИХТИЁРИЙ ҲАРАКАТ ТЕЗЛИГИ, ФАОЛ ДИҚҚАТНИНГ БАРҚАРОРЛИГИ, АКЛИЙ ИШЧАНЛИК КОБИЛИЯТИНИ АНИҚЛАШ.

Ихтиёрий ҳаракат тезлигини аниқлаш.

Боланинг асаб ва мускуллар тизимининг ривожланганлиги даражаси, қўл панжасининг ихтиёрий ҳаракатлари тезлиги билан аниқланади. Бунинг учун хар бир ўқувчи оқ варакқа учта 10x10 ўлчамдаги тўрт бурчак чизади.

“Бошладик” буйруғи берилганда хар бир ўқувчи иложи борича биринчи тўрт бурчак ичига кўпроқ ва тезроқ нуқталар қўйиши керак. 10 сониядан сўнг “тўхта” буйруғи берилади ва ўқувчилар нукта қўйишни тўхтатишади.

Бу тажриба уч маротаба тақорланади. Сўнг хар бир тўртбурчак ичидаги нуқталарни санаб, ёнига ёзib қўяди ва ўртача натижани ҳисоблади. Бунинг учун натижалар қўшилиб тажрибалар сонига бўлинади. Ўртача натижага 1-жадвал билан солиштирилади.

Бажарилган ишни фоизларда ҳисоблаш учун куйидаги формуладан фойдаланилади.

$$\frac{A \times 100\%}{C}$$

A – ўқувчининг ўртача натижаси
C – ёшга нисбатан умумий ўртача қўрсаткич (1-жадвал).

Ўқувчининг ўртача натижаси умумий натижадан $\pm 15\%$ га фарқ қилиши ихтиёрий ҳаракат тезлиги меъёрда эканлигидан дарак беради.

1-жадвал

Ёши	Нуқталар сони	
	Ў.ФИЛ	Киз
7	40	35
8	45	38
9	52	41
10	56	44
11	58	47
12	60	51
13	63	53
14	65	55
15	67	58
16	70	62
17	75	66
18	80	72

Фаол дикқатни аниқлаш

Керакли нарсалар: 1 дан 25 гача тартибсиз ёзилган рақамлар таблиқаси (40x40) 4 та, секундомер.

Тажриба ўтказиш тартиби: Фаол дикқатнинг физиологик механизми бу, бош мия катта яrim шарларида оптимал қўзғалиш ўчогини вужудга келишидир. Оптимал қўзғалиш ўчогини вужудга келишини рус физиологи И.П.Павлов бош мия катта яrim шарларининг ижодий бўлими деб номлайди. Ижодий бўлимдада қўзғалиш қанча юқори бўлса, янги шартли рефлекслар шунча тез хосил бўлади.

Фаол дикқатнинг концентрланиши ва давомийлилиги ўсмирларнинг ёшига боғлик. Бола қанча ёш бўлса тормозланиш жараёни шунча бўш ва қўзғалиш мия яrim шарларида шунча тез иррадацияланади. Фаол дикқатнинг давомийлилиги 7-8 ёшда 15 минут, 9-10 ёшда 20 минут, 11-12 ёшда 25 минут, 13-14 ёшда 30 минут, 15-16 ёшда 40 минут ва катталарда 55-60 минут атрофида

бўлади. Агарда ақлий иш керагидан ортиқ давом этса, ўқувчидаги нотинчлик хосил бўлиб, ақлий ишнинг аниқлиги ва тезлиги пасаяди. Шунинг учун дарс мобайнида ақлий меҳнат турини бир неча марта ўзгартириш керак. Фаол дикқат қанча юқори концентранган бўлса, ақлий иш шунча тез ва аниқ бажарилади.

Фаол дикқатнинг концентрацияси хақида жадвалда келтирилган рақамларни топиш тезлигидан билиш мумкин.(1,2,3,4- жадвал).

Агарда жадвалда ёзилган 1 дан 25 гача рақамлар 30-40 сонияда топилса дикқатнинг концентрацияси яхши хисобланади, 45-60 сонияда топилса қониқарли ва ниҳоят 60 сониядан ортиқ вақтда топилса қониқарсиз хисобланади.

1-жадвал

2-жадвал

	5		3	
0	1	3	8	
9	4		5	0
2		2	1	6
	4	7		
2		5	3	4
5	1		0	
	9		3	6
7	1	4	2	
		0		8

жадвал

3	5			
	0	3	1	
8		1	5	7
2	4	9	2	
6			4	0
		1	4	6
3	1	9	5	
0	5			0
	8	4	7	2
3			2	

4-

Ишнинг
Текширувчига 1,2,3,4
кўрсатилиб,
1дан 25 гача ёзилган
тартиб билан баланд
айтиш ва кўрсатиш

тушунтирилади. Рақамларни иложи борича тезрок кўрсатиш айтилади. Текширувчи вазифасини тушунгандан сўнг тажриба бошланади. Текширувчига 70-100 см узоқликдан 1-жадвал кўрсатилади ва "бошладик" деб буйруқ берилади. Шу билан бир вақтда секундомер юргизилади ёки соатнинг секундли стрелкасида вақт белгиланади. Агарда текширувчи янглишса уни шу рақамни қайтадан кўрсатиш сўралади. 25 та рақамни кўрсатилгандан сўнг шу жадвал учун кетган вақт аниқланади, яъни секундомер тўхтатилади. сўнг 2,3,4 жадваллар билан худди шундай тажриба ўтказилади.

Ишни расмийлаштириш.Ўртacha маълумот чиқариш учун 4 та жадвалдан олинган вақтлар кўшилиб 4 га тақсимланади. Масалан 4та жадвал учун 120 секунд вақт сарф бўлди, 120 : 4 teng 30. Сўнг гурух учун ўртачани чиқаринг, бунинг учун барча ўртacha натижаларни кўшиб, хосил бўлган натижани гурухдагилар сонига бўлинг. Худди шундай тажрибани мактаб ўқувчиларида ўтказиш уйга вазифа этиб юборилади.

Одамнинг дикқатини талаб этадиган фаолияти

вақтидаги ақлий ишчанлик қобилиятини аниқлаш.

Хозирги вақтда А.И.Қ.ни аниқлаш учун коррекцияловчи жадвалдан (Анфимов жадвали) кенг фойдаланилади. Бу жадвал билан ишлаш аниқлик, тезлик ва дикқатни бир жойга жамлашни талаб қилади.

Тажриба давомида ишни сифат ва микдор жихатлари баҳоланади. Кўйидаги формулалар ёрдамида тажриба натижалари аниқланади.

$$A = \frac{M}{N}$$

M - аниқлик коэффициенти,
M - ўчирилган харфлар сони,
N - кўрилган харфлар сони.

$$P = A \times S$$

P - А.И.Қ. коэффициенти, S - кўрилган умумий харфлар сони

Иш анжомлари: корректура жадвали ва секундомерлар.

Тажрибани ўтказиш тартиби. Анфимов жадвали тарқатилганидан сўнг ўқитувчи ишни бошлиш хақида буйруқ беради ва талабалар 4 дақиқа давомида айтилган харфни белгилашлари

бориши:
таблицалар
таблицадаги
рақамларни
овозда

керак. Бу тажриба жадвалдаги барча харфлар билан такрорланади. Иш давомида тезлик, дикқат ва аниқлик талаб қилинади. Сүнг жадвалларни ўзаро алмаштириб, белгиланган харфларни алохидан санаб, қуидаги жадвал тұлдирилади.

Иш вакти	Бер илган харфлар	1 дақықа давомида топилған харфлар сони	Жадвалда мавжуд харфлар сони	Жами ва топилған харф сонилари фарқ

Ишни расмийлаштиришга доир тавсиялар.

Ишнинг тезлиги түғрисида 4 дақықа ичіда күриб чикилған белгиларнинг умумий мікдорига қараб мұлоҳаза қилинади. Аниқлик түғрисида эса 4 дақықа ичіда қилинған хатоларнинг умумий мікдорига қараб мұлоҳаза қилинади. Ҳар хил текширилувчиларнинг иш қобиляйтларини солишириб күринг, текширилған функционал күрсаткичлардан қайси бири юқоригоқ информациили бўлса, иш қобиляитини баҳолаш учун ҳисобга олинг.